

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

# TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2009-yil  
6-iyul  
N:27  
66724

ISSN - 2010-6092



Bolalar-e, bolalar, eshitmadim  
demanglar, «Tong yulduzi» gazetasi  
tashabbusi bilan yana bir yangi  
tanlov e'lon qilindi!

Bolalarning yozgi ta'lil kunlarini  
mazmunti o'tkazish, maktablar  
qoshidagi «Mohir qo'llar» to'garaklari  
faoliyatini jondantirish, shuningdek,  
o'quvchilarning murg'ak qalblarida  
milliy ursf-odatlarimiz, an'ana va  
marosimlarimizga hurmat tuyg'usini  
shakllantirish maqsadida:

O'zbekiston Xolin-qizlar qo'milasi,  
Respublika xalq ijodiyoti Markazi,  
Toshkent shahar xalq ta'limi Bosh  
boshqarmasi hamda Respublika bolalar  
va o'smirlar gazetasi «Tong yulduzi»  
hamkorligida «Qo'g'irchoq'im ~  
ovunchog'im» tanlovini o'tkazadi.

## Tanlov shartlari


### quyidagilardan iborat:

1. Bolalarning qo'lida bo'lgan mahalliy xom-ashyo (toy, qog'oz, yog'och, somon, malo va boshqa)lardan milliy ertaklarimiz qahramonlarini yaratish;
2. «Qo'g'irchoqlar malikasi» degan nomga munosib qo'g'irchoq limsolini yaratish;
3. Maklabi, mahallasi qoshida «O'yinchoqlar ustazonasi»ni ochish;
4. Yaratgan o'yinchoqlarining bir nusxasini tahririyalga yuborish.

Tanlov 2010-yilning 1-iyunida yakunlanadi.  
G'oliblarni maxsus diplomlar, homiylar  
hamda mashhur qo'g'irchoqbozning sirli  
sov'ralari kutadi.

## Bizning muxlis -

Xorazm viloyati, Urganch shahridagi  
20-maktabgacha ta'lif muassasasi  
maktabga tayyorlash guruhi  
tarbiyalanuvchisi XONZODABEGIM



## TA'TILDA SHAHAR KEZING!

Men «Tong yulduzi»da berib borilayotgan Toshkent haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni o'qib bormoqdaman. Ta'tildan unumli foydalangan holda poytaxtining go'zal joylarini ko'rib, dilim yayramoqda. Menga, ayniqsa, Amir Temur xiyoboni juda yoqadi. Aytishlaricha, bu yer shahrimizning qoq markazi hisoblanar ekan. Yangi qurilgan maktablar-u litseylarning ko'pligini aytmaysizmi?! Bizning litseyimiz ham juda ko'rkar va zamonaviy ko'rinishga ega. Shunday chiroyli binolarda puxta bilim olib, tezroq ulg'ayging, shahrimiz ravnaqiga hissangni qo'shing keladi.

*Shahlo XOLMATOVA,  
Sharqshunoslik instituti qoshidagi  
xorijiy tillar akademik litseyi o'quvchisi*



Chivinlar Tundra botqoqligining har yuz gektaridan kuniga 16 kg. azot, 9 kg. fosfor va 6 kg. kalsiy olib ketarkan.

Eng mitti robot 1992-yili Yaponiyada Sieko Epson kompaniyasi tomonidan loyihalashtirilgan. Uning uzunligi 1 sm., og'irligi esa atigi 1,5 gr. bo'lgan.

Qushlarning qoni eng shirin hisoblanadi. Qon tarkibidagi qand miqdori baliqlarda juda ham kamligi aniqlangan.

### TARIXIMIZNI O'RGANAMIZ

SEVIMLI GAZETAM, MEN SENING CHIN MUXLISINGMAN. YAQINDA OTAM MENGA ZANJIRSAROV DEGAN JOY BORLIGINI, BIBIXONIM SHU YERDA TUG'ILGANINI, HATTO AMIR TEMUR BOBOMIZ HAM BU JOYDA BO'LGANLIGINI AYTIB BERDILAR. BUTO'G'RIDA TO'LIQ MA'LUMOT BERARSIZLAR, DEGAN UMIDDAMAN. OLDINDANTASHAKKURIMNI QABUL ETINGLAR.

*Hurmat bilan Po'lat OBIDOV, Farg'onan*



## ONANGIZNI AYAYSIZMI?



Bolalikdagi bir voqeа sira yodimdan chiqmaydi. Har kuni erta tongda oyijonim bizni mehr-la erkatalib uyg'otar, mazali taomlar bilan nonushta qildirib, kiyintirib, maktabga kuzatib qo'yardilar.

Bir kuni ertalab meni hech kim uyg'otmadidi. Uyg'organimda esa maktabga kech qolgan ekanman. Ajablanib oshxonaga yo'l oldim. Odatta oyijonimni qachon qidirsam, oshxonadan topardim-da. Qarasam, nonushta ham tayyorlanmagan. Keyin bilsam, tobi qochib qolgan oyimni dadam shifoxonaga olib ketgan ekanlar. Shu kundan uy-ro'zg'or yumushlari mening zimmamga yuklatildi. Chunki farzandlarning kattasi edim-da. Ikki ukamni maktabga kuzataman, singilchamni bog'chaga olib boraman, keyin o'zim maktabga otlanaman. Dadamning ham halovati yo'qoldi, ishdan barvaqtroq chiqib bozor-o'char qilar, keyin ovqat tayyorlab, shifoxonaga oshiqardilar. Oyimning yo'qligi o'zlashtiriшimga ham ta'sir qildi. Ukalarimning darslari, kir-chiri, singlimning xarxashasi, oshxona yumushlaridan ortib dars tayyorlashga fursat topolmay qoldim. Shunda

birinchi marta oyimga nechog'li qiyin ekanligi haqida o'yab qoldim. Eng muhim, juda zerikdim. Har kuni kechqurun allamahalgacha oyijonim bilan suhbatlashib o'tirardik, har bir ishni bamaslahat qillardik. Chunki ular mening eng yaqin sirdoshim edilar-da.

Avvallari yoqtirgan narsamni o'zim yeb qo'ya qolardim. Oyim yo'qliklarida esa ukalarim va singlimga ilingim kelaverdi. Nazarimda, oyimsiz ular ham mung'ayib qolgandek edilar. Shunda o'zim uchun bir haqiqatni kashf qildim: oyijonim baliq qovursalar, o'zlaribosh yoki qiltanog'i ko'proq bo'ladigan dum qismini yeb o'tirardilar. Sababini so'rasak, menga yoqadi, deb qo'yardilar. Endi bilsam, baliqning sergo'sht joylarini bizga ilinar ekanlar...

Oyijonim shifoxonadan qaytgan kunlari uymizda haqiqiy bayram bo'ldi. Ukalarim, singlimning quvonib osmonga sakrashlarini bir ko'rsangiz edi. Shu kuni oyimni oshxonaga umuman yo'latmadim. Keyinchalik ham oyim bilan barobar uyg'onadigan, harchand e'tiroz bildirmasınlar, barcha yumushlarni ular bilan birgalikda bajaradigan bo'ldim. Onalarimiz biznigina emas, biz ham ularni ayashimiz lozimligini anglab yetdim...

Xo'sh, siz-chi, aziz bolajonlar, onangizni ayaysizmi? Ularning yumushlarini biroz bo'lsada, yengillashtirish haqida hech o'yab ko'rganmisiz? Yeyayotgan narsangizni oyingizga ham ilinasizmi? Baribir yemaydilar-da, chunki yomon ko'radilar, deysizmi? Adashasiz, yomon ko'rismaydi, aslida, siz-u bizga ilinishadi.

*Tasavvur qiling, onangiz bir chelak suv ko'tarib kelyapti. Qo'llaridan olaman desangiz: «Qo'yaver, og'ir emas», deyishadi. Nima deb o'ylaysiz, chelakdag'i suv chindan ham yengilmi, yo...?*

*Feruza JALILOVA*

Siz, bolalar, bilasizlarki, dunyoda hali to'liq o'rganilmagan tarixiy manzillar ko'p, u yerlarda insoniyatning noyob va bebafo tarixi yashirin yotibdi. Bizning yurtimizda ham bunday tarixiy manzillar ko'p. O'shalardan biri Zanjirsaroy bo'lib, u yer haqiqatan ham, buyuk Sohibqiron Amir Temur va ulug' malika - Saroymulkxonim hayoti bilan bog'liq.

Zanjirsaroy nomi qayerdan kelib chiqqan?

Bolalar, avvalo, shuni bilib qo'ysangiz yaxshi bo'lardi. O'z yurtingiz tarixiy joylarining nomlarini, ularning ma'nosini bilish siz uchun, albatta, muhim: qanchalik ko'p bilsangiz, shunchalik kuchli bo'lasiz.

Zanjirsaroy haqida Fasih Havofiyning «Mujmali Fasihiy» asarida shunday yozilgan: «Amir Joku barlos boy kishi edi. Uning mol-mulki ko'p, qirq g'ulomi bo'lardi. Chorvasi quduqdan suv ichardi. Qovg'aga zanjir bog'langan edi, qirq kishi quduqdan suv tortardi. Shu jihatiga ko'ra, bu joyni «Zanjirsaroy» deb ataganlar». Yana boshqa fikrlar mayjud bo'lishi mumkin.

Saroymulkxonim - Amir Qozonxon-

ning qizi edi. 1347-yillarda turkiy amirlardan Qag'ozon chig'atoylar, ya'ni chingiziyalar hokimiyatiga barham bergach, bu oqila va dono malikani o'zining suyukli nabirasi Amir Husaynga olib bergen edi. Barcha manbaalarda uning shu yerda, aynan Zanjirsaroya tug'ilgani aniq aytib o'tilgan.

Mustaqillikkacha Zanjirsaroy haqida yozish, bu yerda keng tadqiqot ishlarini olib borish mumkin bo'lmagan edi, 1991-yilda aynan yurtimiz

## ZANJIRSAROV

mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lgan kunlarda Muborak shahrida istiqomat qiluvchi Qurbon Hamroyev tariximizning jonkuyarlaridan biri Poyon Ravshanov bilan shu manzilni o'rganishga kirishadilar. Bu to'g'rida u to'liq ma'lumot bergen. Agar Poyon Ravshanovning 2005-yilda «Yangi asr avlodи» nashriyoti tomonidan chop etilgan «Saylanma» kitobi qo'lingizga tushsa, Zanjirsaroy haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin. Xullas, tarixchi yozganidek, to 1991-yilgacha Zanjirsaroy haqida manbaalarda bir-ikki ma'lumotlar berilgan edi-yu, ammo qasning

# MENGA YOQQAN «MENSIZLIK»

Setora AHMEDOVA 1992-yilning fevralida Toshkent shahrida dunyoga kelgan. Ikki yoshiдан kuylashni boshlagan xonanda hozirgi kunga qadar 25 ta qo'shiq ijro etgan.



**– Setora, ilk qadamingiz «Tomosha» guruhiba qo'yilgan, desak, adashmaymiz. Nima deb o'ylaysiz, o'sha vaqtida ikki yoshli qizaloqning «Shayton» nomli qo'shig'i oila a'zolariga manzur bo'lganmi?**

– Menimcha, bu qo'shig'im yaqinlarimga ma'qul kelgan. Chunki har bir ota-onalar farzandining yutuqlarini ko'rib quvonadi. Birinchi qo'shig'imni ikki yoshimda ijro etishimni katta yutuq deb hisoblamasam ham, bu qo'shiq keyingi qo'shiqlarimga poydevor bo'lgan, deb ayta olaman.

**– Ikki yoshli «xonanda» besh yoshida 1-sinfga qabul qilingan ekan. Aytingchi, unga maktabdag'i darslar og'irlik qilmaganmi?**

– Avvaliga, darslarni o'zlashtirish biroz qiyinroq bo'lgan. O'zim o'qishga qiziqqanam uchun sinfdoshlarimidan hecham ortda qolmaganman. 1-sinfni tamomlab, 2-sinfga o'tganimda, menga ustozlarim yana ham ko'proq yordam bera boshlashgan. Ayniqsa, yaqin dugonam Aynuraya Abdullayeva doimo men bilan birga bo'lardi. Hozirgi kunda ham Aynuraya bilan doimo birmiz.

**– Qo'shiqlaringizni ko'ngildagidek chiqishida kim sizga yordam beradi?**

– Onajonimni eng yaqin maslahatgo'yim deb bilaman.

**– Ustozlaringiz haqida nima deya olasiz?**

– Nodira opa Qurbonovani ustoz sifatida hurmat qilaman. Ular menga doimo eng yaxshi maslahatlarni bergenlar.

**– Yaxshi ko'rib ijro etadigan qo'shig'ingiz?**

– «Mensizlik» nomli qo'shig'im o'zimga juda yoqadi. Negaki, bu qo'shiqni yaratish jarayonida esda qolarli voqealar ko'p bo'lgan. Ba'zi qo'shiqlarni yaratishda juda toliqib qolaman. «Mensizlik» qo'shig'inining matni musiqasiga hamohang bo'lGANI uchun har safar o'zimga ham yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi. Bu qo'shiqni qayta-qayta kuylagim keladi.

**– Biz ham yaxshi kayfiyat bag'ishlovchi, xalqimizga manzur bo'ladigan qo'shiqlaringiz soni bundan ham ko'payishiha tilakdoshmiz. Suhbatingiz uchun rahmat!**

Suhbatdosh:

Gulyuz BAHODIR qizi

Zulfizar endigina besh yoshga to'ldi. Ammo uning gapirishi, o'zini tutishi xuddi kattalarnikidek. Uni har kuni buvusi bog'chaga olib boradi. U bog'chasini va bog'cha opalarini judayam yaxshi ko'radi. Chunki bog'chada dugonalari Dilbar va Zarinalar bilan doim birga o'ynashadi.

Bugun ham Zulfizarni bog'chaga buvusi olib keldi. U bog'da o'ynayotgan bolalar orasidan dugonalarni qidirdi. Ammo ularni bog'dan emas, hovlidan topdi. Ikki dugona qo'g'irchoq o'ynashayotgan ekan. Zulfizar ham o'yinga qo'shildi. Shu payt Zarina bilan Dilbar qo'g'irchoqlarni talashib, qo'l-oyoqlarini sug'urib olishdi. So'ngra, singgan qo'g'irchoqni irg'itib, boshqa o'yinga chalg'ib ketishdi. Zulfizar ularni ko'rib, hayron bo'lib qoldi. Axir u do'star hech qachon janjallahishmasa kerak, deb o'ylardida.

Bolalarni tushlikka chaqirishga kelgan bog'cha

## Qo'shiq JAROHALAJ

(Hikoya)

opa yo'lakcha chetida yotgan qo'l-oyoqsiz qo'g'irchoqni ko'rib, jahli chiqdi.

– Bu kimning ishi? – so'radi u.

– Boya qo'g'irchoqni Zarina, Dilbar va Zulfizar o'ynayotganini ko'rgandim, – dedi bir bola.

Aybi ochilishidan qo'rqqan Dilbar:

– Qo'g'irchoqni Zulfizar sindirdi, – dedi.

Uning gapini Zarina ham tasdiqladi.

Bechora Zulfizar o'zini qanday oqlashni bilmay, jum turardi. Bu jumlikni bog'cha opasi aybini tan olish, deb tushundi. Keyin Zulfizarni rosa koyidi. Ko'zlaridan alam yoshlari tomchilayotgan Zulfizar dugonalari tomonga hatto qayrilib qaragisi ham kelmay qolgandi...

Zarnigor RAMAZONOVA,  
yosh muxbirimiz

o'zi qayerdaligini hech kim aniq aytib berolmas edi. Ba'zi tadqiqotchilar uni Samarcand yaqinida deb gumon qilar edilar.

Biz Shahrisabzda o'tgan Amir Temur hayotini o'rganish bo'yicha ilmiy anjumanga borganimizda, samarcandlik taniqli tarixchi olim Temir Shirinov tashabbusi bilan Zanjirsaroyga borgan edik. Qum va tuproqli yo'llar, yulq'unzorlar, keng dalada, gurros esib turgan shamol... yengil mashinalarning chiroqlari oydinida ko'zga yaqqol tashlanayotgan qasr

## QISMATI

goldiqlari... pishiq g'ishtlar... O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali, Poyon Ravshanov va boshqa olimlarning mashinadan tusha solib, Zanjirsaroy haqida suhbatga berilib ketganlari – bari esimda. Bu odamlarning ishtiyoq bilan qarashlari, gap-so'zleri hali-hamon qulqlarim ostida jaranglab turadi. Zanjirsaroy qasrini Qozonxon qurdigan, degan gaplar bor manbaalarda, ammo to'liqroq ma'lumotni boshqa manbaalardan topolmaysiz!

«1341-yilda uning qizi Saroymulxonim aynan shu yerda, Zanjirsaroya tug'ilgan edi». Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temuring bu yerda qishloq

barpo qilganini yozgan. «Amir Temur Zanjirsaroy qishlog'ida bir-ikki bor qishlagan, harbiy yurishlar uchun shu yerda katta kuch to'plagan». Bilasiz, bolalar, tarixchilarimiz bunday qadimiy manzillarni ko'zlariga surtadilar va moziydan sado beruvchi shunday makonlarda his-hayajonga berilmasdan qaytmasliklari mumkin emas. Bu yerlar ulug' Amir Temur bobomiz va jahoning mashhur malikalaridan biri Bibixonimlarning qadamlari tekkan tabarruk joylar. Bu yerlarda bo'lib, hayajonlanmasdan o'tish mumkinmi?

Hali aytganimizdek, mazkur manzil yaqinida Xoja Roston ziyoratgohi va Nushirvoni Odil qal'asi qoldiqlari ham mavjud. Aziz bolalar, Nushirvoni Odil qal'asi melodiy eradan oldingi asrlarga oidki, bu joylarni o'rganish, tadqiq etish, tariximizga oid juda ko'plab yangi-yangi manbaalarga ega bo'lishimiz mumkin. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish kerakki, mana sizga mavzu: o'qing, o'rganing va bizga yozib yuboring. Siz bilan yana mavzuga qaytib, Zanjirsaroy haqidagi suhbatimizni davom ettiramiz.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz obi-hayot manbai bo'lmish suvgaga juda katta e'tibor va hurmat bilan qaraganlar. «Suvga turupish gunoh», degan gap ulardan qolgan deyish mumkin. Zanjirsaroy atrofida ham, taxmin qilish mumkinki, juda ko'p quduqlar mavjud bo'lgan. Zanjirsaroy yaqinidagi

quduqni topishda o'sha yerdagi dalalarda qorovullik qilgan Eshmurod ota Saidov yordam bergan. Agar ular bo'limganda, ehtimol, tariximizdan guvohlik beruvchi yana bir dalil yo'olib ketarmidi?! Dastlab quduq qidirliganda, keng dalada undan asar ham ko'rinnagan va Eshmurod ota doira shaklida cho'kib turgan joyni «O'sha quduq shu edi», deb ko'rsatganda, barchaning yuzida ajablanish sezilgan va ma'lum bo'lganki, 1979-yilda Qarshi cho'lini o'zlashtirish paytida quduq tekislanib, ustiga tuproq tortib yuborilgan. «Eshmurod bobo yoshligida shu yerlarda qo'y boqib, katta bo'lgan emasmi, quduqni bolalik paytida ham ko'rganligini, suv tortiladigan masofa chuqur yo'lak bo'lib qolganligini hikoya qilib berdi», deb yozadi Poyon Ravshanov.

Ehtimol, 1387-yilda Zanjirsaroy To'xtamish tomonidan yondirib vayron etilmaganda, u bugun ham o'z salobati va ko'rki bilan bizni yanada hayratda qoldirib turgan bo'larmidi?! Nima bo'lganda ham, Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanida olis tariximizdan guvohlik beruvchi ana shunday manzil mavjudki, bu to'g'ridagi tadqiqotlarni davom ettirish siz o'smirlarning ham vazifangizdir. Bu to'g'ida ota-bobolaringidan biror rivoyat eshitgan bo'lsangiz, bizga albatta yozib yuboring.

O'ZBEKKON

O'tgan o'quv yilida ham Toshkent Davlat texnika universiteti qoshidagi Yangiyo'li akademik litseyida yetti yildan buyon faoliyat yuritayotgan «Yosh qalamkashlar» to 'garagi faoliyat olib bordi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, bolalar shoiri Abdurahmon Akbar rahbarlik qilib kelayotgan bu to 'garak a'zolarining mashqlari matbuot nashrlarida e'lon qilindi. «Litsey ovozi» devoriy gazetasi ularning katta minbariga aylangan. O'tgan yillar davomida yosh qalamkashlarning «Uyg'onayotgan gul», «Tong shamoli», «Mehr quyoshi» nomli she'riy guldastalari litsey talabalari va o'qituvchilar hukmiga havola etildi.

O'qituvchilar qalamlarining charxlanishiga O'zbekiston xalq yozuvchi va shoirlari Pirimkul Qodirov, Halima Xudoiberdiyeva, Mahmud Toir, Anvar Obidjon va Tursunboy Adashboyevlari bilan litseyda o'tkazilgan adabiy uchrashuvlar ham katta ta'sir etdi.

Bugun e'tiboringizga to 'garak a'zolari va litsey ijodkor xodimlarining ijodidan namunalar havola etmoqdamiz. Ular sizga ham, albatta, manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

## YURTIM

*Yurtim, chiroyingga lol-u hayronman,  
Gullarga burkangan diyorsan, gulgun.  
O'n sakkiz bahoring muborak bo'lsin,  
Seni mehrim bilan kuylayman bugun.  
Shonli tarixingga tashlasam nazar,  
Yovqur bobolarim tushar yodimga.  
Istiqlolim mangu, ey, ona yurtim,  
Baxtingni ko'raman o'z ijodimda.*

Zulxumor NURUSHEVA



## ONALAR

Onalar poyida yashnagan jahon,  
Onalar dilimdan topdi mangu jo.  
Mehri daryo misol, qalbi nurafshon,  
Bitta og'iz so'zi ming dardga davo.

Jonim joningizga etsin o'zin shay,  
Nur bo'lay, onajon, ko'zlariningizda.  
Poyingizga guldek poyandoz to 'shay,  
Ko'zlarining nurin baxsh etay sizga.

Gulchehra SHERMATOVA



## ASKAR BO'LAMAN

Mard o'g'lonni ko'rib men,  
G'ururlarga to 'laman.  
Va aytaman onamga:  
«Ona, askar bo 'laman!»  
Onam derlar: – Qo'y, qizim,  
Sog'inchlardan o'lam.  
– Bermasangiz ham izn,  
Ona, askar bo 'laman.  
Ko'zlarida to 'la yosh,  
– Mayli, mayli, – der onam.–  
Xalqqa xizmat etishda  
To 'marisdan bo 'lma kam.

Zohida MIRHAYDAROVA,  
Yangiyo 'l akademik litsey xodimi

Tuvakdag'i bir gulning,  
Xayollari sochilgan.  
Bag'rida tog'dek armon,  
Lekin o'zi ochilgan.


## AYOL

Ulug' noming fazolarga tengdir, ayol,  
Farzandlaring senga yoqa-yengdir, ayol.  
Ko'zlariningda olam-olam ma'nolar bor  
Sening ko'ngling dunyolardan kengdir, ayol.

Qo'llaringda gul-u lola va non, ayol,  
Yuz, ko'zingda hasad emas, iymon, ayol.  
Farishtalar atrofingda parvonadir  
Bahor isin taratguvchi xushro'y ayol.

Rayhana MIRZABOBOYEVA

“ASSALOM,  
QUYOSH!”



## DEB KUTIB OLAMAN



Qishlog 'imizda yana  
bir tong otdi. Erta  
tongdan «Salom,  
quyosh!» deb yana  
bir yangi tongni kutib  
olgan hamqishloqlarim  
o'qish va ishga  
otlanishar ekanlar, bir-  
birlari bilan salom-alik  
qiladilar.

Men Shahrixon tumanining go'zal Ahmadbek qishlog 'ida yashayman. Menga qishlog 'imning bejoyon dalalari, chiroyli va ko'rak bog'lari, gulzorlari, hashamatli binolari, bir-biri bilan juda ham ahil va inoq insonlari yogadi. Qishlog 'imiz juda ham go'zal. Unni ta'riflashga til ojiz.

Qishlog 'imiz haqidagi bir rivoyat xalqimiz tilida yuradi: XIX asrda yashagan andijonlik boy bo'lib, uning Ahmadbek ismli o'g'li otasining iltimosi bilan yangi yer ochib, hozirgi biz yashab turgan qishloqqa keladi. Qishlog 'imizning yerlari, tabiatini yogib qoladi va qarindosh-urug'lari, mehnatsevar ishchi-dehqonlarni yig'ib, ko'chib keladi. 1811-

yilda Qo'gon xoni Amir Umarxon Mohlaroyim bilan Shahixon shahrini buniyod etadi. Suw keltirish niyatida 1811-yilda Shahixon soy qazilib, suw keltirilgan. Shundan beri bizning qishlog 'imizdan Shahixon soy oqib o'tadi. Qishlog 'imizda Qashqar mahallasi, Ortish, Janjal, To'psari, Ogshog, Gumbaz mahallalari mavjud. Bu yerda 3 ming aholi yashaydi. Qishlog 'imizdan huquqshunoslik fanlari nomzodi Alisher To'xtasinov, igtisod fanlari nomzodi Nizomiddin Isomiddinov, texnika fanlari doktori Soyibjon Abdurahmonov, fan nomzodi Avazxon Bahodirov kabi ilmi, Komiljon G'oziyev, Foziljon Madrahimov kabi tadbirdirkor insonlar yetishib chiqqan.

Qishlog 'imizda davlat kutubxonasi ham mavjud. Biz bo'sh paytalarimizda turli xil kitoblar o'qiyamiz.

Men horizorda Shahrixon tumanidagi 59-umumta'lim maktabi o'quvchisiman. Kelajakda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lmochiman.

Dilnoza DJITJONOVA

## 2009-YIL-QISHLOG TARAQQIYOTI VA FAROVONLIGI YILI



Qishlog 'im - qalb ardog 'im tanloviga

Qishlog 'imiz Kattabog' deb nomlangan. Bunday atalishining sababi, qadimdan bu yerda katta bog'lar bo'lgan. Mazkur joy kundankunga obodonlashtirilib, ko'rkmashib bormoqda. Yangidan-yangi uylar, zamonaviy litseylar, kollejlari, maktablar qurilmoqda. To'rtta umumta'lim maktablari mavjud. Odamlarimiz ham saxiy, inoq. Biror-bir ish qilmoqchi bo'lishsa, ahillikda, birgalikda ish tutishadi.

## NEGA KATTABOG?


Yaqinda bo'lib o'tgan «Tashabbus – 2009» tanlovida Ollonazar Sa'dullayev «Eng yaxshi hunarmand» nominatsiyasi bo'yicha Prezident sovg'asini qo'lga kiritdi. Shu tanlov bois qishlog 'imiz nomi Vatanimizning eng baland minbaridan yangradi.

Tengdoshlarim tuman miqyosida bo'lib o'tadigan turli musobaqalarda, ko'rik-tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinnarni egallab, Respublika bosqichlariga ham chiqishgan.

Mening bobom Rustamboy Qutlimurodov uzoq yillar qishlog 'imizdag'i chorvachilik fermasini boshqarib, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan chorvador» unvoni bilan taqdirlanganlar.

Men ham bobom kabi chin inson bo'lishga harakat qilaman.

Fazilat RUSTAMOVA,  
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi  
32-maktab o'quvchisi



GUL ORZUSI

«Yurakdag'i anduhim  
Odamlar bilarmikan?  
Menga ham yerdha o'sish  
Oh, nasib qilarmikan?»

Inson - tabiatning ajralmas bir bo'lagi, deyishadi. Uning maftunkor quchog'iga talpinishimiz, betakror go'zalliklaridan bahra olishimiz, onalarnikidek mehrbon bag'ida kuch-quvvatga to'lishimiz ham bejiz emas.

Ayniqsa, yoz chillasida soya-salqin go'shalari o'z bag'riga chorlayveradi. Biz esa zavalanishdan, sir-usinoatlardan hayrallanib charchamaymiz.

### TABIAT QO'YNIGA SAYOHAT

Suv tabiatning bebahone'mati sanaladi. Uni qadimdan ajdodlarimiz asrab-avaylab sarflab kelishgan. Buni Xonbandi shaharchamizda joylashgan suv ombori misolda ham ko'rsa bo'ladi.

Tarix fani o'qituvchimiz S. Ahmedova ta'tilda bizni ana shu suv omboriga sayohatga olib borishga va'da bergandilar. Yaqinda ustozimiz boshchiligidagi suv omboriga sayohat uyuştirdik. Ularning ombor tarixiga oid hikoyalarida aytishicha, bu ombor VIII-IX asrlarda somoniylar Abdullaxon I davrida qurilgan bo'lib, tumanimizning Omonsoy, Ilonchisoy, Qo'lbosoy, Qo'hnbabozor qishloqlaridagi

soylardan oqib keladigan oqar suvlarni to'plab, h o z i r g i « K a l t e p a » tarixiy joyidan bog' yaratilgan. Abdullaxon davriga kelib,

bu bog' ancha kengaygan. Nurota xonlari bu yerni o'zlarining chorbog'iga aylantirishgan. Suv omborida ko'ndalang joylashtirilgan 9 ta qulf bo'lib, suv toplash chog'ida ular bekitib qo'yilgan. Sug'orish ishlari boshlangach, yuqoridan boshlab qulflar ochila boshlangan. Suv ombori pishiq g'ishtlardan qurilgan. Yillar o'tgan sayin suv ombori qumlar oqib kelishi oqibatida to'la boshlagan va bizning davrimizga kelib, butunlay to'lib qolgan va oqib kelayotgan suv kenglik yaratib, sharshara hosil qilgan.

*Shodiyabegim SHAROFIY,  
Forish tumanidagi 59-  
umumta'lim maktabining  
7-«G» sinf o'quvchisi*

### SUV BILAN SUHBAT

Kechki ovqatdan so'ng xonamga kirib, chiroqni o'chirdim. Shiftga qarab o'ylab yotibman. Uxlay desam, sira uyqum kelmaydi. Shu payt ko'chadan g'alati ovoz eshitila boshladi. Chiqib qarasam, bu ovoz ariqdagi suvdan kelayotga n ekan.

– Salom senga, odamzod! – dedi tilga kirib ariqdagi suv.

– Sen gapira olasanmi?..


– Ha, siz insonlardan juda ko'p aziyat chekdir. Ularni ichimiga yutaverib, paymonam to'lib ketdi. Oh-u zorlarimni aytish uchun esa tilga kirishga majbur bo'ldim.

– Sening qanday oh-u zoring bor?

– Eh, sen so'rama, men aytmay. Dunyoga kelganimda, tog'-u toshlardan oqib tushgan zilol buloq suvi edim. Insonlar meni ichishsin, bahramand bo'lishsin, deya niyat qilgandim. Afsuski, ular meni ayanqli ahvolga solishdi, bag'rimni turli chiqindilar-u ichimliklardan bo'shagan idishlar bilan to'ldirishdi. Haddan ziyod isrof qilib yuborishdi. Nimani xor qilsang, o'shangacha zor bo'lsan, degan naql bor. Insonlar ham kun kelib, bir tomchimga zor bo'lib qolishmasa edi, degan xavotirdaman...

Cho'chib uyg'ondim, hayriyat, tushim ekan. Hali qo'limni yuvGANIMDA, jo'mrakni ochiq qoldirganim yodimga tushib, uni darhol yopib keldim. Tushim sabab, «Suvni asrash kerak!» degan xitob mening kundalik shiorimnga aylandi.

*Furqat KARIMOV,  
Sirdaryo viloyati*



Husanboy AVVALOV  
olgan surat

### UNUTMADINGIZMI?

Qadrli tabiat shaydolari! Kuzatib borayotgan bo'lsangiz, gazetamizning o'tgan sonlarida faol muxbirimiz Bahrom Akbarovning o'simliklar olamiga oid bilimlaringizni sinash maqsadidagi test savollari e'tiboringizga havola qilingan edi. Ularga to'g'ri javob yo'llab, sirli sovg'alarni qo'lga kiritishni unutmadingizmi?

(Gazetaning 21-, 26 - sonlariga qarang)

### GO'ZALLIKLAR ATO ETDI...

Yuzlarimga tong shu'lasi tiriklik berib, Bu kun uchun ato etdi yana kuch, g'ayrat. Dengiz uzra marjon-marjon tomchilar terib, Nasib qildi ummondayin lojuvard hayot. Lolalardan alyon-alvon tuslarni olib, Yuzlarimga insoniylik mehrini berdi. Dillarimga mehr ila orzuni solib, Ko'zlarimni shudring ila olmosday terdi. Qomatini jo qiloldi mag'rur tog'lar ham, Insonlarda bo'lsin deya g'urur, salovat. Mehrjonim mahoratin-ko'rsatdi bizga, Go'zalliklar ato etdi go'zal tabiat.

*Mohira QODIROVA,  
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi  
16-maktabning 8-sinf o'quvchisi*




### AJOYIBOTLAR



Tuyaqush tuxumini qaynatish uchun to'rt soat kerak. U tovuq tuxumiga nisbatan 36 marta og'ir bo'ladi. Tuyaqush tepkisining kuchini ot tepkisiga qiyoslash mumkin.

Misr fir'avni Tutmos III hayoti davomida juda ko'p jang olib borgan. G'alabadan so'ng fir'avn mamlakat poytaxti Fivaga o'zi bosib olgan hududlardan turli hayvonlarni olib kelar va maxsus joyda parvarishlar edi. Shu tarqa miloddan avyalgi XV asrda Nil bo'yida dunyodagi eng birinchi hayvonot bog'i paydo bo'lган.



*Zilola MUTALOVA,  
O'zMU qoshidagi akademik litsey o'quvchisi*

### 49 YOSHЛИ JORJ



Xonaki qushlar orasida eng uzoq umr ko'radigani g'oz hisoblanadi. Ular o'rtacha 25 yil yashaydilar. Angliya shahrida yashaydigan Florens Nall xonimning «Jorj» laqabli g'oziga esa 49 yil-u 8 oy umr ko'rgan. 1927-yilning aprelida tuxumdan chiqqan bu g'oz 1976-yilning dekabrida bu yorug' olamdan ko'z yumgan.

*Sahifani AZIZA tayyorladi*

## OSMONDA BIR KO'PRIK BOR

Nemis xalq og'zaki ijodidan  
Bolalar she'riyati

*Abdunabi Boyqo'ziyev taniqli shoir.  
«G'uboringni yozgayman», «Seni izlab  
keldim», «Judolig' dashti» she'riy  
to'plamlari hamda «Dilxiroj tuyg'ular»  
nasriy kitoblar muallifi. Bugun uning  
jahon bolalar adabiyoti namunalardan  
amalga oshirilgan ayrim tarjimalari  
bilan tanishamiz.*

## ARIFMETIKA

Qani, 2+3  
Necha bo'lar? Tezroq ayt!  
Javobni to'g'ri topsang  
Beraman beshta konfet.

Ikki karra ikki-chi?  
Qani, bosh qotirib ko'r.  
Ha, yasha! Olam bilar,  
Ikki karra ikki – to'rt.

Kitobni qo'lga ol-da,  
Takrorla erta-yu kech.  
Olti bor olti – 36,  
Beshta besh – 25.

Uch ichida uch burchak,  
Uchga bo'linar beshak.  
Yeti mag'rur va daroz,  
Ikkiga hech bo'linmas.

## SAMO KO'PRIGI

(Topishmoq)

Osmonda bir ko'priko bor  
Bezaklari rango-rang,  
Oyoq bossang, ko'tarmas,  
Yetolmaysan qo'l cho'zsang.

Qush uchsa teshib o'tar,  
Bulutlarni to'smaydi.  
Shu qadar mustahkamki,  
Chaqmoq ursa to'zmaydi.

Har yoz samo sultoni,  
Tovuslardan rang ola,  
Quradi takror-takror.

Ko'priko bir xislat bor,  
Bu sirdan olam hayron,  
Qishda yo'qolib qolar.

(Kamalak)

## XATTOT SO'ZI

Qog'ozni ko'r-kar dema,  
Qog'ozning ham ko'zi bor.  
Hatto hukmdorlar ham,  
Hisoblashar so'zi bor.

Garchand u moz, uvada,  
Quroqdan yasalsa-da,  
Niyati har qanday oq,  
Ko'ngillidan yorqinroq.

Uning qoshida ne-ne,  
Allomalar bosh egar.  
Hilvani polvon qilar,  
Ojizlarni donishvar.

Sizga quloq osmagan,  
Jajji erka bola ham,  
Unga boshin egadi:  
– Men yozishni bilaman!

Qalam qachon roz aytса,  
Aytar qog'ozga mudom.  
Kuchsizni botir etar,  
So'zlarni hazrat Kalom.

Qog'oz – mo'jiza, qog'oz...  
Unda olam mujassam.  
Amr etsa qilich ojiz,  
Shoh sultonlar musallam...



## YALMOG'IZ

Tong sahar oltida,

Yalmog'iz taom tilar.

Soat yettida

Pishar sholq'omi.

Sut ichar sakkizda,

To'qqizda to'qqizta

Tuxum yutadi.

O'n bo'lmay

Yana, ishtaha karnay.

Tungi o'n ikkiga

Zang urib-urmay,

O'choqqa o't qalab qo'yadi yana.

Qozonida baqa oyog'i,

O'Igan takaning sassiq tuyog'i.

Suyak-sayoq, latta-putta...

Marhamat, dasturxon kutar!

bo'ldi. Hamza aka men suhbat qurmoqchi bo'lgan «tirik klassik»ning o'z oyog'i bilan kirib kelganiga ishonib-ishonmay, Shukur akaga iltifot ko'rsatib, u kishi bilan quyuq salomlashdi-da, bizga sharoit yaratib berish uchun bo'lsa kerak, o'zi xonani tark etdi.

Shukur aka deraza yonidagi kursiga cho'kib, biroz ko'chaga qaragancha nimalarnidir o'ylab xayol surib turdi.

U kishi sigaret tutatib so'z boshladi:

– Yaqinda Boysunda bo'lib qaytdim... – men tomonga ilkis qarab qo'yib, – siz anavi savollaringizni tashlab ketganingizdan keyin, – deya davom etdi, – tepalikning qir uchida bir gujum bo'lar edi, bolaligimizda shu gujum ostida o'ynar edik, – Shukur aka xo'rsinib qo'ygach, negadir menga uqtirmoqchi bo'layotgandek qattiqroq tovushda yana ulay ketdi, – shu borganimda ham ulfatchilig-u mehmonorchiliklardan qochib, o'sha gujumni qidirib ketdim... Ancha qaribdi... Yolg'iz o'zim edim. Qushlar hamon ilgarigidek sayrab turibdi. Sigaret tutatib, gujum ostida o'tiraveribman, yon-atrofimdan chug'ur-chug'ur bolalikdagи ovozshovqinlar kelib turgandek bo'ldi. Kun peshindan og'ayotganda borgan edim, hamon chekib o'tiraveribman,

kech kiribdi, quyosh botib qorong'ilik cho'kibdi, men esa hamon o'tiraveribman... Bir mahal junjikib ketib, mundo-oq o'zimga kelib qarasam, hammayoq qop-qorong'i... Beixtiyor osmonga qaradim: yulduzlar g'uj-g'uj, shu qadar yaqin... Bilmay qolibman, ko'zimdan yosh oqib turgan ekan...

Shukur aka shu so'zlarni aytgach, qo'lidagi sigaretdan yana bir-ikki chuqr-chuqr tortib havoga tutun purkadi-da, o'midan turib menga qo'uzatdi:

– Xayr, – dedi men u kishining kaftiga kaftimni qo'yanimda.

Nima deyishni ham bilmas edim.

Yo'lakkacha kuzatib chiqdim.

U kishi ketayotib, bir-ikki qadamdan so'ng ortga burildi-da:

– Kechirasiz, – dedi xijolat chekayotgandek, – menimcha, shuning o'zi yetarli bo'lsa kerak...


Keyin ketdi.

Men Shukur aka qatorlashtirib tuzgan savollarimga yaxlit qilib javob berib ketganini angladim.

Keyinchalik Hamza akaning, suhbat qachon tayyor bo'ladi, deya qanchalik qistalang qilib so'rab-surushtirishlari foyda bermadi, bunaqa eng qisqa suhbatni bolalar gazetasiga berishning hech iloji yo'q edi.

Shoyim BO'TAYEV,  
yozuvchisi

Qadrdon gazetam

CHOP  
ETILMAGAN  
SUHBAT

Armiyadan qaytib kelib, «Lenin uchquni» (hozirgi «Tong yulduzi») bolalar gazetasiga ishga kirdim-u, Shukur Xolmirzayev bilan Vatan mavzusida suhbat qilmoqchi bo'ldim.

Gazetamiz adabiyot bo'lumi mudiri, ajoyib bolalar shoiri Hamza Imomberdiyevdan Shukur Xolmirzayevning telefon raqamini topib berolmaysizmi, deb so'radim.

– O'-ho', so'ragan odamingizniyu... Bizda unaqa katta odamlarning telefon raqamlari qayoqdan ham bo'lsin... U kishi tirik klassik-ku, tirik klassik... – dedi.

– Shu klassik bilan gazetamizga Vatan haqida suhbat qilib bermoqchi edim, – dedim.

Bu taklif Hamza akaga nihoyatda ma'qul kelib:

– Qaniyi-ku... – dedi va u yoqbu yoqqa qo'ng'iroq qilib, darhol

Shukur akaning uy telefon raqamini topib berdi.

Uy eshigini Shukur akaning o'zi ochdi. Salom-alikdan so'ng, men tuzgan savollarga ancha vaqt jiddiylik bilan tikilib qolib:

– Vatan so'zini ko'p ishlatis yuboribsiz, – deb qo'ydi.

Nima deyaramni bilmadim. Nazarimda, men tuzgan savollarga u kishi shu zahotiqoq sharillatib javob aytib yuboradigandek bo'lib tuyulgan edi.

Lekin aksincha bo'lib chiqdi.

– Men avval bir o'ylab ko'ray, – dedi Shukur aka o'sha-o'sha jiddiylik bilan, – keyin xabarlasharmiz...

Men xayrlashib, chiqib ketdim.

Kunlardan bir kuni hech kutilmaganda o'sha hammaga tanish bo'lgan mashhur shlyapada Shukur aka xonamiz eshigi ostonasida paydo



2009 Tong yulduzi  
6-iyul

## Bola – bamisoli bir nihol, qayoqqa egsang, o'sha tomonga egilaveradi



### IQTIDORLI SPORTCHILAR

Rossiya davlatining Yekaterinburg shahrida stol tennisi bo'yicha o'tkazilgan Xalqaro musobaqada O'zbekistondan ham sport ustalari qatnashdilar. Terma jamoa safida qatnashgan Chust tumanidagi 6-Olimpiya zaxiralari Bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchisi – 9-maktabning 5-sinf o'quvchisi Munavvar Shukurjonova Xitoy, Qozog'iston, Rossiya va boshqa mamlakatlardan kelgan sportchilarni dog'da qoldirib, kumush medal sovrindori bo'ldi.

Sport maktabining yana bir tarbiyalanuvchisi Dilafro'z Jumayeva Toshkent shahrida o'tkazilgan «Sog'lom avlod uchun» Respublika birinchiligidajuftlik va yakka musobaqada bitta oltin, bitta kumush medalni qo'lgan kiritdi.

Har gal sport maktabi haqida gap borganda, faxr bilan qo'lgan kiritilgan yutuqlar sanab o'tildi.

Bu dargohdan ana shunday iqtidorli sportchilar yetishib chiqib, uning dovrug'i Respublikamizga yoyildi. Sport maktabi shahardagi 9-maktab bazaaside tashkil etilgan bo'lib, 224 nafar bolalar Toshpo'lat Azimov rahbarligida futbol, stol tennisi, yengil atletika kabi sport to'garaklarida 14 ta guruhsiga bo'linib, shug'ullan boshlashdi. Keyinchalik esa u faqat stol tennisi bo'yicha ixtisoslashtirilib, ko'pchilikning e'tiboriga tushdi.

Maktabimizdan shu kungacha 6 nafar sport ustasi, 150 nafar sport ustaligiga nomzod, 30 nafar mamlakat championlari yetishib chiqdi, – deydi Respublika toifasidagi hakam, «Shuhrat» medali sohibi

### MAKTABI

T.Azimov.

– Ushbu maktabni bitirgan Rasuljon Yunusov, Odiljon Xoldorov, Abdurashid Qirg'izboyev, Nosir Ismoilov kabi ko'plab o'quvchilar bu soha bo'yicha malakali mutaxassis bo'lib yetishdilar.

17 yoshidayoq Sevara Qodirova Jahon championi, yoshlar o'rtasida Shvetsiyada o'tkazilgan Jahon birinchiligidagi oltin medal sohibi bo'ldi.

Sport maktabining yana bir talabasi Madina Ayupova esa O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, mamlakat championi, xalqaro musobaqalar sovrindori, shuningdek, u Qatar mamlakatining Doha shahrida o'tkazilgan XV Osiyo o'yinlarida ham muvaffaqiyatli ishtiroy etdi.

Bugungi kunda mazkur maktabda stol tennisi bo'yicha 53 guruhsida 770 nafar yoshlar muntazam shug'ullanmoqdalar.


– Biz yosh sportchilarni hamishaga o'llab-quvvatlaymiz, – deydi tumandagi sport jonkuyarlaridan biri

Manzura Dadaboyeva. – Kelgusida ham xalqaro turnirlarda qatnashishlari uchun homiylik ko'magini ayamaymiz.

Har gal sport maktabiga yo'limiz tushganda, yangi xushxabardan ko'nglimiz ko'tariladi. Iстиqlol tufayli dunyoga yuz tutgan yoshlarimizdan qaysi biridir nufuzli xalqaro musobaqaga hozirlik ko'rayotgan bo'ldi.

Bola – bamisoli bir nihol, qayoqqa egsang, o'sha tomonga egilaveradi. Shu bois, farzandlarimizni yoshlik davrlaridan mehnatga, kasbga, turli sport o'yinlariga jalb qilsak, ular har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetadilar.

Mansur IMOMXONOV



## O'smirlikning sog'lom bekati ODDIY HAQIQATLAR

– Sog'lom – siz uchun nima? – deb so'radilar.

U qat'iylik bilan javob qildi:

– Sog'lom men uchun davlat!

Darvoqe, aqlli odam o'zini avaylaydi: uning sog'lig'i nafaqat o'zi, oilasi uchun, balki Vatani uchun ham kerak.

«Badantarbiyani tark etgan odam, xarob bo'ladi», deb yozgan edi Ibn Sino. Bugungi mutaxassislarining aytishicha, buyuk allomaning gapida jon bor. Harakatsiz qolgan a'zolarning quvvati zaiflashar ekan. Tana a'zolari zaiflashsa, xotira ham susayib boradi. Demak, sog'liqni davlatga aylantirish uchun badantarbiya mashqlarini har kuni bir paytda, bir maromda, me'yorida bajarib turish zarur. Piyoda yurishning ham foydasi ko'p, eng avvalo, u asabga turki berib, fikrni ishga soladi.

Donodan so'radilar:

– Bu tetiklikni qayerdan topdingiz?

– Sovuq suvdan!

– Sovuq suv shifo bo'ladi. Kasallikning oldini olib, ruhni tetiklashtiradi.

Yangi tarjimalar  
A.A.TREPENENKOVA

## «QUYMOQ» O'YINI

Har yili avgust oyida Londonda g'alati musobaqa o'tkaziladi. Har bir ishtiroychi boshiga meva solingan o'nta



savatni qo'yib, yugurishadi. Bu juda qiziq-a?

G'ayriodatiy musobaqalardan yana biri bu quymoq musobaqasidir.

Bu musobaqada odatda uybeklari ishtiroy etishadi. Lekin unda barcha insonlar ishtiroy etishi mumkin. Bunday musobaqalarda avval quymoqni tayyorlab olib, so'ngra uni yo'l bo'yirig'itib, ilib yugurishadi. Va bu holatni uch marotaba takrorlashadi. O'ylab ko'ring-a, buni bajarish oson emas. Londondagi Vestministr maktabida bolalar quymoq uchun kurash olib borishadi. Har bitta sinfdan bittadan o'quvchi ishtiroy etadi. Maktab oshpazi quymoqni havoga irg'itadi. Bolalar uni ushlab olishga harakat qilishadi. G'olibga quymoqni eng katta bo'lagi nasib etadi va u pul ham yutib oladi. Yutqazib qo'yan bolalar esa tushlik uchun g'olibga quymoq olib berishadi.




2009 Tong yulduzi  
6-iyul

## YAXSHI

Mana, aziz o'quvchilar, yozgi ta'tilda kimiror oromgohlarda dam olishni xush ko'rsa, ba'zilaringiz bo'sh vaqtingizda kitoblarni mutolaa qilishni sevasiz.

Yaqindagina «O'zbekiston» nashriyotmatbaa ijodiy uyida muallif Saidbahrom Azizovning «MARKAZIY OSIYODA ASTRONOMIYA VA ULUG'BEK MAKTABI» nomli risolasi 3000 nusxada nashrdan chiqdi. Kitobda Markaziy Osiyoda



**KITOBLAR** astronomiya fani va Ulug'bek ilmiy maktabining taraqqiy etishi, uning Alisher Navoiy ijodiga ta'siri haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Mirzo Ulug'bek o'rta asr sharoitida ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, bu sohalarni yuqori pog'onaga olib chiqqan buyuk vatandoshimiz hisoblanadi. O'z atrofidagi o'sha yillarning iste'dodli olimlarini to'plagan Ulug'bek Samarkand ilmiy akademiyasini yaratdi. Bu akademiyada ikki yuzdan ortiq olimlar faoliyat olib borishdi. Ulug' olim bilan yonma-yon turib, ilm cho'qqlarini egallagan olimlar orasida Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshy kabi allomalarining borligi bu ilm dargohining yuksak nufuzidan dalolat beradi. Ulug'bek «Zidi jadidi Ko'ragoniy» asarida 1018 yulduzning falakdagi o'rni va holatini aniq ifodalaydigan

**BOR** jadvallar bergan. Ulug'bekning hisobi bo'yicha yulduz yili 365 kun, 6 soat, 10 daqiqa, 8 soniyani tashkil etadi. Zamonaviy o'chovlarga qiyoslaganda, Ulug'bekning hisobi atigi 1 daqiqa-yu 2 soniyaga farq qiladi, xolos.

Ulug'bekning merosi isnoniyat ilmiy tafakkurining rivojlanishida bundan buyon ham muhim va noyob ilmiy manbaa bo'lib qolaveradi.


Gazetaning 26-sonida e'lon qilingan «Poytaxtim» chaynvardining javoblari:

1. Mustaqillik.
2. Kaykovs.
3. Samarcand.
4. «Dinamo».
5. Oybek.
6. Keles.
7. Sebzor.
8. Rohat.
9. Turon.
10. Nukus.
11. Sag'bon.
12. «Navo».
13. Oqtepa.
14. Arslonquloy.
15. Vatan.
16. Nozimaxonim.
17. Mingo'rik.
18. «Kamolot».
19. Taxtakul.
20. «Lazgi».
21. «Istiqlol».
22. Labzak.
23. Ko'kaldosh.
24. «Sharp».
25. Qoraqamish.
26. Shayxontohur.
27. Registon.
28. Namozgoh.
29. Hamza.
30. Abulqosim.

### MUAMMONOMA

Kalit so'zlar: 1. Choch. 2.Qo'ymas. 3. Ko'hakiy. 4. Shoshiy. 5. Kamalak. 6. Daha. 7. «Paxtakor». 8. Non. 9. Tramvay.

Shakl atrofida: Qadimiy, hamisha navqiron, tinchlik va do'stlik poytaxti.



**BOSH MUHARRIR:**  
**To'lqin HAYITOV**

Dizaynerlar:  
**Zuhra MUHSIMOVA,**  
**Elyor ESHCHIONOV**  
Navbatchi:  
**Gulyuz ORIFJONOVA**



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'Imagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.


## Eng baland bo'yli inson maqomiga yangi nomzod Xitoyda uniqlandi

Biz bolalar hayoti, ularning ta'tiliga ziynat bag'ishlayotgan maskanlarni Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 40-maktab qoshida tashkil qilingan «Kamalak» oromgohi misolida yoritishni maqsad qildik.

Oromgohimizda 100 nafar bola dam olayapti. To'rtta guruhda bir-birini takrorlamaydigan mashg'ulotlar asosida faoliyat olib boryapmiz: Zangiota tumani Xalq ta'limi bo'limi ijodiyot markazidan maxsus mutaxassis jalb qilgan holda bolalarga ganchkorlik va rubob chalish sirlarini o'rgatyapmiz, – deydi oromgoh rahbari Zebo Matyoqubova. – «Toshkent 2200 yoshda» rasmlar ko'rik-tanlovini o'tkazishga tayyorgarlik ko'ryapmiz. Bularning har biri bolalarga jismonan va ruhan huzur baxsh etishi shubhasiz.

Oromgohdagi kutubxona qiziqarli kitob va jurnallarga to'la. Bolalar ertak tinglab, uyquga yotishayapti. Ularning yuzko'zlaridan yoz zavq-u shavqqa to'lib o'tayotgani ko'rinib turbidi.

Bolalarning maroqli dam olishlari uchun jonbozlik ko'rsatayotgan Dilafro'z Qozoqboyeva, Zulayho Boboyeva, Surayyo Sultonxo'jayeva, Muhamayyo Salimova, Halima Ismoilovalarga samimiyl tashakkur



bildirging keladi. Darhaqiqat, bolalar oromini o'ziga rohat bilgan bu kabi kasb fidoyilar doimo tahsinga loyiq.

Sahnada rollar ijro etishga qiziqaman. O'z ijolarim bilan oromgohdagi o'rtoqlarimga quvonch ulashishga hissa qo'shayapman, – deydi oromgoh tarbiyalanuvchisi Nigora Turg'unova.

Oromgohda bo'lib o'tayotgan musiqa va sport bellashuvlarida Aziz Turg'unov, Otabek Ikrombekov, Laylo Boltaboyeva, Razzoqxo'ja Muhammadxo'jayev boshqa tengdoshlariga ham namuna bo'lishyapti.

Go'zal RAJAB qizi

## «ANTIQA» JUMBOO

1-raqam atrofiga: Olqish, rag'bat.  
2-raqam atrofiga: «... bolalik» Tohir Malik asari.

3-raqam atrofiga: Jangovor sport turi.

4-raqam atrofiga: Yo'sin, usul.

5-raqam atrofiga: Ibn Sino asari.

6-raqam atrofiga: Ulus nomi.

Javob so'zlarini to'g'ri yozgan bo'lsangiz, ularning bosh harflarini ketma-ket qo'shib, yana bir so'z hosil qiling.

Javob so'zlaridagi oxirgi harflarni ixtiyoriy o'ringa qo'yib, yana bir so'z yasang.

### Tuzuvchilar:

Valjon Abdullayev, o'qituvchi,  
Abdulaziz Jamoliddinov, o'quvchi,  
Namangan tumani, 37-maktab

## USTOZ VA NOPOK SHOGIRD

Ibn Sinoning obro'-e'tibori ortib borayotganini ko'rolmayotgan shogirdlaridan biri ustozini zaharlash uchun dori tayyorlabdi. Buni sezgan ustoz zaharni nari suribdi va o'z dardini davolash uchun o'zi dori tayyorlabdi. Tabib o'ziga ixlos qilib yurgan boshqa shogirdlariga haligi yigitning darvozasi yoniga qum to'kib kelishlarini buyuribdi. Nopok

shogird qum orasida qimmatbaho narsa bormikan, deb uni titkilabdi. Ammo hech narsa topolmabdi, ich-etini yeb ado qilgan shogird ustozi oldiga borib, undan qum to'kishning sababini so'rabi.

Shunda Ibn Sino debdiki: «Sen meni zaharlamoqchi bo'lding.

Men esa seni urmadim, so'kmadim. Ammo chang va g'am changaliga giriftor etdimki, bu esa sen uchun og'ir jazo bo'lsin!».

Iqboloy OLIMJON qizi,  
Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi  
81-maktabning 4-sinf o'quvchisi

**Manzilimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 700129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel/faks:  
(99871) 244-38-10

**«O'zbekiston»**  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092

Adadi - 28209  
Buyurtma N: J 7683

**TAHIR HAY'ATI:**  
Gazeta  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi  
agentligida 0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

**Fayzulla HAY'ATI:**  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinnbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA